

# Seysmologlar Bosh Assambleyasi Toshkent shahrida o'tkaziladi ([www.asc2026.uz](http://www.asc2026.uz))

2026-yilning 25-30-aprel kunlari Toshkent shahrida nufuzli xalqaro ilmiy anjuman - Osiyo seysmologik komissiyasining 16-Bosh Assambleyasi bo'lib o'tadi. Ushbu tadbir seysmologiya sohasidagi jahonning yetakchi olimlar va mutaxassislarni bir maydonga jamlaydi. Toshkent shahri seysmologiya tarixida muhim ahamiyatga ega. 1966-yil 26-aprelda sodir bo'lgan kuchli zilzila mintaqada seysmik tadqiqotlar va zilzila muhandisligining rivojlanishiga turtki bo'lgan. 2026-yil ushbu voqeaning 60 yilligi hamda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Seysmologiya instituti tashkil etilganining 60 yilligi bilan ahamiyatlidir.

Anjuman doirasida:

nufuzli xalqaro ekspertlar ishtirokida ma'ruzalar;

og'zaki va poster taqdimotlar;

seysmik xavflarni baholash va kamaytirish bo'yicha zamonaviy yondashuvlar muhokamasi o'tkaziladi.

Shuningdek, 2025-yil 29-aprelda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan O'zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan 29-aprel — Zilzila qurbonlarini xotirlash xalqaro kuni deb e'lon qilingani mazkur anjumanning global ahamiyatini yanada oshiradi. Toshkentda ushbu nufuzli Assambleyani o'tkazish xalqaro ilmiy hamkorlikni mustahkamlash, seysmik xavflarni kamaytirish bo'yicha ilmiy yechimlarni ishlab chiqish va tajriba almashish uchun muhim platforma bo'lib xizmat qiladi.